

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH

**SURXONDARYO ETNOGRAFIKALARINING LINGVOMADANIY
TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Raxmanov Botir Abdurasulovich

Surxondaryo etnografizmlarining lingvomadaniy tadqiqi 3

Рахманов Ботир Абдурасулович

Лингвокультурное исследование Сурхандарьинских этнографизмов 25

Rakhmanov Botir Abdurasulovich

Linguistic study of Surkhandarya ethnographisms 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/27.02.2020.Fil.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH

**SURXONDARYO ETNOGRAFIKALARINING LINGVOMADANIY
TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.1.PhD/Fil 1199 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Guliston davlat universiteti veb-sahifasida (www.gdu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ermatov Ixtiyor Rizoqulovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yuldasheva Dilorom Nigmatovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "26" 12 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (99 867) 225-40-42; faks: (99 867) 225-02-75; E-mail: glsu.info@edu.uz).

26 Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (26 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel (99 867) 225-40-42.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "18" 12 kuni tarqatildi.
(2024-yil "18" 12 dagi 26 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.R.Mamatqulov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A.Axrorov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F.G.Sharipov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til va madaniyat muammolarini birga o'rganishga doir tadqiqotlar har doim ham ijtimoiy zarurat sanalgan. Boisi, ma'lum bir xalqqa xos madaniy belgi va manzara, avvalo, o'sha xalqning til tizimida o'z aksini topadi. So'nggi yillarda, tilshunoslik fanining yangi talablari asosida, tilni milliy-madaniy asosda tadqiq etishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Til tadqiqiga bu asosda yondashuv natijasida XX asrning ikkinchi yarmida etnolingvistika fani rivojlandi va yangi bosqichga ko'tarildi. Shuningdek, fanning keyingi taraqqiyoti natijasida lingvokulturologiya va antroposentrik tilshunoslik sohalari ham jadal rivojlandi. Xalqlarning etnografik leksikasi va jonli so'zlashuv tili asosida etnomadaniy jarayonlarni o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi.

Dunyo tilshunosligida til imkoniyatlari asosida har bir xalqning milliy urf-odatlarini, an'analarini, etnomadaniy hayot tarzi o'rganib kelinadi. Bu jarayonni tilshunoslikka oid tadqiqotlarda til va madaniyat, til va etnos tushunchalari oxirgi o'n yillikning asosiy tadqiq obyektiga aylanganida ham ko'ramiz. Turli xil omillar, xususan, madaniyatlararo integratsiya ta'siri ostida ma'lum bir xalqqa xos an'anaviy qadriyatlar va urf-odatlarining aksariyati unutilib bormoqda. Ular asosida yaralgan etnografik maqol, matal va aytimlar hamda noyob so'z va iboralarning ham bir qismi nutqimizdan chiqib ketmoqda. Shu bois bu kabi paremiologik birliklarni saqlab qolish hamda tadqiq etish muhim masalalardan biri va shu jihatdan ham mazkur yo'nalishga doir tadqiqotlar dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Yurtimizda ham keyingi yillarda milliy qadriyatlar, etnik an'analar va urf-odatlarini asrab-avaylash, ularni rivojlantirish masalasi yangi bosqichga ko'tarildi. Bunga hamohang tarzda milliy-madaniy belgilarni o'zida saqlab kelayotgan etnografik leksika namunalarini ilmiy asosda tadqiq etishning mazmuni ham o'zgardi. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim"¹.

Milliy madaniyatni asrash uchun kurash sharoitida, milliy o'zlikni himoya qilish, etnik an'analar va qadriyatlarni saqlab qolish, milliy-mental belgilarni tilda aks etishini ta'minlash kabi vazifalar hududiy etnografizmlarni yangi maqsad va talablar asosida o'rganishni talab qiladi. Shuningdek, lingvomadaniy belgilarni o'zida saqlab kelayotgan hududiy etnografik maqol, matal va iboralarni yig'ish va ilmiy asosda tadqiq etish bugungi ijtimoiy va lingvistik zarurat sanaladi.

Bu borada, Prezidentimizning "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri"² – degan fikrlari ham juda o'rinlidir.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони //http://lex.uz/docs/4561730

² Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 29.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyaning ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Etnolingvistika dastlab Amerikada mahalliy qabilalar tilini o‘rganish asnosida fan sifatida shakllangan bo‘lsa, keyinchalik Yevropa va Rossiyada yangi tadqiqotlar asosida rivojlandi. Til va madaniyat o‘rtasidagi ilk tadqiqotlar kognitiv va antroposentrik izlanishlar asosida shakllandi. Bu soha Amerikada F.Boas va uning shogirdlari E.Sepir, B.Uorf, Yevropada V. fon Humbolt, Y.L.Vaysgerber, X.Fisher, V.Xeschen, B. Illius, M. Gaenzle, L.fon Karstedt, Rossiyada esa N.I.Tolstoy, S.M.Tolstaya, A.S.Gerd, E.L.Berezovich, U.Levkiyevskaya, A.A.Plotnikova, S.Y.Dubrovin, L.O.Zanozin kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi.

Yevropada, xususan, Germaniyada etnolingvistika fanning alohida sohasi sifatida jadal rivojlandi. Rossiyada esa slavyan³ kuban⁴, boshqird⁵, tatar⁶, buryat⁷, qorachoy-bolqar⁸, chuvash⁹, mari, udmurt va boshqa tillar etnoleksikasiga doir ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Shuningdek, qozoq va ozarbayjon tilshunosligida ham sifatli etnolingvistik tadqiqotlar mavjud. Bunda Ozarbayjon tili maxsus

³ Славянские древности: этнолингвистический словарь: в 5 т. // под ред. Н.И.Толстого. – Москва, Международные отношения, 1995–2012.; Плотникова А.А. Этнолингвистический словарь как лингвистически, этнографический и фольклорный источник (на материале славянских языков и традиции). Дисс. на соискание учёной степени кан. фил. наук. – Москва, 1990.

⁴ Финько О. С. Лексика свадебного обряда Кубани (на материале обрядовой практики станицы Черноерковской Краснодарского края). Автореф. дис. кан. фил. наук. – Курск, 2011.

⁵ Багаутдинова М.И. Этнографическая лексика башкирского языка. – Уфа: РИО РУНМЦ, 2002. – С. 11; Ишбердин Э.Ф. Названия животных и птиц в башкирских говорах. Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Уфа, 1970; Самситова Л.Х. Безэквивалентная лексика башкирского языка. Автореф.дисс.канд.фил.наук. – Уфа, 1999.

⁶ Этнография татарского народа. – Казань, Магариф, 2004. – С. 287; Татар теленең диалектологик сүзлеге. – Казан, Тат. кит. нәшр., 1993.

⁷ Дондокова Д.Д. Лексика духовной культуры бурят. – Улан-Удэ, 2003; Манжигеев И.А. Бурятские шаманистические и дошаманистические термины. – Москва, Наука, 1978.

⁸ Аппоев А.К. Этнографическая лексика карачаево-балкарского языка. Дисс. кан. фил. наук. – Нальчик, 2003; Семенова И.Дж. Параметрический анализ лексики карачаево-балкарского языка на тюркском фоне. Дисс. кан. фил. наук. – Воронеж, 2017.

⁹ Дегтярев Г.А. Лексика земледелия в чувашском языке. – Москва, 1987.

etnografik terminlar lugʻatining tuzilishi katta ahamiyatga ega boʻldi.¹⁰ Qozoq tilshunoslaridan A. Shamshatova va E. Janpeysovning tadqiqotlari ham diqqatga sazovordir¹¹.

Oʻzbek tilshunosligida ham etnografizmlar turli sathda tadqiq etilgan. N.Mirzayev¹² oʻzbek tilining etnografik leksikasi haqida umumiy maʼlumotlar bergan boʻlsa, A.Joʻraboyev¹³, Z.Xusainova¹⁴ Y.Bobojonov¹⁵, M.Kaxarova¹⁶ N.Amonturdiyev¹⁷, N.Kurbonazarova¹⁸, O.Nurjonov¹⁹, Muhammad Humoyun Nadim²⁰ kabi tadqiqotchilar tomonidan oʻzbek xalqining toʻy marosimi, etnografizmlarining lugʻaviy va onomosiologik turlari, etnografizmlarning semantik tabiati va lingvomadaniy xususiyatlari (toʻy marosimlari misolida), etnografizmlar lugʻatchiligi masalalari oʻrganilgan.

Biroq oʻzbek tilshunosligida etnografizmlarni, xususan etnografik maqol, matal va iboralarni yigʻish, lugʻatlashtirish, ularni hududlar kesimida oʻrganish borasida hali qilinishi kerak boʻlgan ishlar koʻp. Qolaversa, hududiy etnografizmlarni yigʻish va saralash, turlash hamda tasnif qilish, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish hozirgi oʻzbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya ishi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi “Oʻzbek nutqshunosligi: badiiy nutq tahlili, antroposentrik nazariya, etnolingvistika” mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Surxon vohasining chekka qishloq hududlarida yashovchi aholi nutqida saqlanib kelayotgan etnografizmlar, etnografik maqol, matal, aytim hamda noyob soʻz va iboralarni yigʻish, turlarga ajratish, maʼnosini izohlash hamda ularning lingvomadaniy birlik sifatidagi talqinini belgilashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

oʻrganilayotgan hudud aholisi nutqidagi etnolingvistik va lingvomadaniy birliklar tahlili doirasida voha etnomadaniy muhiti va etnografizmlarning shakllanish asoslarini oʻrganish va tahlil qilish;

¹⁰ Азербайджанско-русско-этнографический словарь. – Баку, 1987.

¹¹ Шамшатова А. Лексика знаковых культур в казахском языке. Дис. канд. фил. наук. – Алма-Ата, 1966; Жанпейсов Е.Н. Қозоқ тилининг этник-маданий луғати. – Алма-Ата, 1983; Жилкубаева А.Ш. Термины питания в казахском языке. Автореф. дис. канд. филол. наук. – Алма-Ата, 1991.

¹² Мирзаев Н. Ўзбек тилининг этнографик лексикаси. Фил.фан.номз.дисс. – Тошкент, 1971

¹³ Жўрабоев А. Ўзбек тилида тўй маросими номлари.Фил.фан.номз.дисс. – Тошкент, 1971.

¹⁴ Хусайнова З. Тўй маросимлари номларининг ономазиологик тадқиқи (Бухоро гуруҳ шевалари асосида). Фил.фан.номз.дисс. – Тошкент, 1984.

¹⁵ Бобожонов Й. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. Фил. фан. номз. дисс. – Тошкент, 1997.

¹⁶ Кахарова М.М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи. Фил.фан.номз.дисс. – Тошкент, 2009.

¹⁷ Амонтурдиев Н. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Гулiston, 2021.

¹⁸ Курбоназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Термиз, 2021.

¹⁹ Нуржонов О. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари этнографизмларининг антропоцентрик тавсифи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Нукус, 2021.

²⁰ Muhammad Humoyun Nadim. Shimoliy Afgʻoniston oʻzbeklari toʻy marosimi etnografizmlarining tizimiy va leksikografik xususiyatlari. Fil.fan.boʻyicha fals.dok. (PhD) diss. – Termiz, 2022.

Surxon vohasi etnografizmlarining umummilliy va etnik o'ziga xosliklarini belgilash, hududga xos etnografik lakunalarni aniqlash;

Surxondaryo etnografizmlarini yig'ish, saralash, turlarga ajratish va tasniflash, etnografizmlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini to'plangan materillar asosida tahlil qilish;

o'rganilayotgan hudud aholisi nutqidan yig'ib olingan etnografik maqol, matal va aytimlarning lingvomadaniy birlik sifatidagi talqinini keltirish, ko'chimini aniqlash, shuningdek, etnografik xususiyatga ega iboralarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqot obyekti sifatida Surxon vohasiga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odat va marosimlar bilan bog'liq etnografizmlar, shuningdek, etnografik xususiyatga ega maqol, matal, aytim va iboralar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Surxondaryo etnografizmlarini to'plash va saralash, ularni turlarga ajratish hamda tasniflash, etnografik leksema, shuningdek, etnografik maqol, matal, aytim va iboralarning lingvomadaniy xususiyatlarini belgilash va ularning hududga xos mental-madaniy konseptlarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, statistik, semantik, sistem-struktur, jadvallash, diagramma, qiyosiy-tarixiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

etnografizmlar ma'lum bir xalq, elat, shuningdek, mahalliy aholi qatlamining etnik o'ziga xosliklari, mental dunyosi, qadriyatlari, urf-odat va an'analari, kasb-kori hamda turmush-tarzini aks ettiruvchi muhim lug'aviy vosita ekanligi Surxon vohasi etnografik leksikasining lingvomadaniy tadqiqi asosida ochib berilgan;

Surxondaryo etnografik leksikasiga xos bo'lgan *jolaq, jovg'an, talqon, qovurmach, qur, ko'moch, shishak* kabi etnografizmlar qadimgi turkiy tilda, adabiy tilda mavjud bo'lmagan yoki boshqa nom bilan atalgan holda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida, *yelqada, kiyit, qo'noq* shaklida qardosh xalqlar tilida faol uchrashi dalillangan;

Dialektal etnografizmlar ma'lum bir hududga xos sheva vakillarining milliy xoslangan leksikasi hisoblanadi. Shunga ko'ra etnografizmlarning mohiyati o'sha xalq etnomadaniyatida mavjud bo'lgan urf-odatlar, marosimlar, an'analar hamda turmush-tarzi bilan bog'liq bo'lgan narsa-hodisalarning nomlari tahlili asosida ochib berilgan;

mental-madaniy konsept Surxon vohasi etnomadaniyatining mahalliy xoslanganlik belgisi hisoblanadi. Shuningdek, hududiy aholining o'ziga xos tafakkuri va dunyoqarashini ifodalovchi hamda mahalliy aholiga xos mental belgilarning boshqa etnosdan farqini ko'rsatuvchi jihatlar etnografik xususiyatga ega maqol, matal, aytim va iboralarda yaqqol namoyon bo'lishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Surxondaryo etnografizmlarini lingvomadaniy usulda tadqiq etish orqali dialektal-etnografik leksika hududiy til birligi sifatida ilmiy-nazariy jihatdan o'ziga xos yo'sinda ochib berilgan;

etnolingvistika, lingvokulturologiya, dialektologiya, antroposentrik va umumiy tilshunoslik kabi fanlar bo'yicha zamonaviy darslik va o'quv qo'llanmalarining yaratilishida muhim manba bo'lishi dalillangan;

Surxon vohasi etnografik leksikasi va paremiologik birliklarining shakllanishida vohaning o'ziga xos etnomadaniy muhiti, boy etnografiyasi va folklorining o'rni beqiyos. Shu sababli mazkur tadqiqot natijalari yurtimizda shiddat bilan rivojlanayotgan etnoturizm sohasi uchun o'ziga xos qo'llanma bo'lishi asoslangan;

Surxondaryo etnografizmlarining lingvomadaniy tadqiqi asosida chiqarilgan xulosalar o'zbek tilining hududiy lug'aviy birliklari tahlili asosidagi yangi tadqiqotlarning yaratilishi uchun xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mavzuni yoritishda, nazariy ma'lumotlarni izohlashda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, keltirilgan tahlillarning lingvistik tahlil metodlari asosida asoslantirilganligi ishda berilgan misollarda lug'atlarga tayanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati etnolingvistika, lingvokulturologiya, dialektologiya, antroposentrik tilshunoslik sohalari doirasida yangi tadqiqotlar yaratilishi uchun, xususan, o'zbek tilshunosligida hududiy dialektlar va etnografizmlarni o'rganish, shuningdek, paremiologik birliklarni lingvomadaniy sathda tadqiq etishga oid tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy manba vazifasini bajarishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek tili etnografizmlarining etnolingvistik, lingvokulturologik hamda dialektologik tadqiqi bo'yicha yaratiladigan darslik, o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish, oliy o'quv yurtlarining bakalavr va magistratura ta'lim yo'nalishlarida etnolingvistika, lingvokulturologiya, dialektologiya bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etishda, shuningdek, dialektologik amaliyot dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Surxondaryo etnografizmlarining lingvomadaniy tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

etnografizmlar ma'lum bir xalq, elat, shuningdek, mahalliy aholi qatlamining etnik o'ziga xosliklari, mental dunyosi, qadriyatlar, urf-odat va an'analari, kasb-kori hamda turmush-tarzini aks ettiruvchi muhim lug'aviy vosita ekanligi Surxon vohasi etnografik leksikasining lingvomadaniy tadqiqi asosida ochib berilganligiga doir ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-2020042022 "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi"ni yaratish bo'yicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 9-noyabrdagi 01/10-2350-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, elektron platformaning urf-odat va an'ana, qadriyat, madaniyat bilan bog'liq voha etnografiyasiga doir didaktik materiallar bilan boyishiga erishilgan;

Surxondaryo etnografik leksikasiga xos bo'lgan *jolaq, jovg'an, talqon, qovurmach, qur, ko'moch, shishak* kabi etnografizmlar qadimgi turkiy tilda, adabiy tilda mavjud bo'lmagan yoki boshqa nom bilan atalgan holda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida, *yelqada, kiyit, qo'noq* shaklida qardosh xalqlar tilida faol uchrashi haqidagi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan AM-F3-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 02-iyuldagi 04/1-1735-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur loyihaning xalq etnomadaniy merosi, jonli so'zlashuv tili, etnik o'ziga xos leksik birlik va birikmalar bilan boyishi ta'minlangan;

mental-madaniy konsept Surxon vohasi etnomadaniyatining mahalliy xoslanganlik belgisi hisoblanadi. Shuningdek, hududiy aholining o'ziga xos tafakkuri va dunyoqarashini ifodalovchi hamda mahalliy aholiga xos mental belgilarning boshqa etnosdan farqini ko'rsatuvchi jihatlar etnografik xususiyatga ega maqol, matal, aytim va iboralarda yaqqol namoyon bo'lishiga doir xulosalardan Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining "Janub ovozi", "Til-millat ko'zgusi" teleko'rsatuvlari ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Surxondaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 10-oktabrdagi 01-02/56-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan holda ilmiy dalillarga boy bo'lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo'yicha 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta patent olingan. Shuningdek, 1 ta lug'at 19 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 6 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, 3 bob, boblar yuzasidan xulosalar, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 131 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, obykti va predmeti, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Etnografizmlarning lingvomadaniy talqini va muammolari**” deb nomlanib, unda etnografizmlarning tilshunoslik obyekti sifatidagi o‘rni va ahamiyati, o‘zbek tilshunosligida etnografizmlarning o‘rganilishi, davr talabi va etnografik talqin vazifalari hamda etnografizm va uning yondosh hodisalarga munosabati kabi masalalar tavsifiy tahlil qilingan.

Etnografizmlarni o‘rganish, ularni ilmiy asosda tadqiq etish bilan asosan, tilshunoslikning etnolingvistika va lingvokulturologiya sohaları shug‘ullanadi. Mazkur ikki fan etnografik birliklarni tadqiq etishda nisbatan alohida maqsad va vazifalarni qo‘ysa-da, mushtarak jihatlariga ham ega.

Etnolingvistika atamasi birinchi marta AQShda o‘tgan asrning 40-yillarida tilga olingan. Nemis manbalarida esa “Etnolingvistik” atamasi birinchi marta 1964-yilda gazeta sarlavhalarida uchraydi. O‘sha davrda nemis olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, asosan, etnolingvistika, lingvistik antropologiya va antropologik tilshunoslik sohalariga oid edi²¹.

Etnografizmlarni tilshunoslikning obyekti sifatida o‘rganish ishlari dastlab AQSh, Yevropa va keyinroq Rossiya olimlari tomonidan amalga oshirilgan. Bu boradagi ilk fikrlar va dastlabki tadqiqotlar etnolingvistika yo‘nalishini boshlab bergan olim Frans Boasga taalluqli. Shuningdek, Edvard Sepir hamda uning shogirdi Bendjamin Uorf tomonidan Amerika *Atsek* qabilasi *Xoppi* urug‘i tili va ularga xos etnografik madaniyatning o‘rganilishi bu yo‘nalishdagi ilk tadqiqotlar sanaladi.

XIX asrning birinchi yarmiga kelib Yevropada mahalliy guruhlar tilini etnik asosda o‘rganish ishlari boshlandi va bu sohada katta ilmiy yutuqlarga erishildi.

Biroq XX asrning ikkinchi yarmiga kelib Yevropada sanoat taraqqiyotining yuqori darajada rivojlanishi hamda urbanizatsiya jarayonining tezlashishi Yevropaliklarning genezis haqidagi tasavvurlarini tubdan o‘zgartirdi.

Ya’ni, bu davrda etnik an’analar, urf-odatlar, mavjud mahalliy qadriyatlar birlashib, umumiy xususiyat kasb eta boshladi.

Har bir tilda o‘sha til egalarining etnik urf-odat va an’analari, qadriyatlari hamda o‘ziga xos mental madaniyati ko‘rinib turadi. Ba’zan bir xalq etnomadaniyatida bir necha xalq urf-odatlari mujassam bo‘ladi. Yoki aksincha bo‘lishi ham mumkin. Ushbu jarayonda asosiy yuzaga chiquvchi belgi sifatida etnografik leksikasi ko‘riladi.

Masalan, ispanlarning qadimiy etnografik o‘yinlaridan biri Korrida (*Corrida de toros* – buqalarning chopishi) Ispan xalqi bilan bir qatorda Portugaliya, Janubiy Fransiya hamda Lotin Amerikasi xalqlarining ham milliy etnografik o‘yinlari sanaladi. Yoki o‘zimizning kurash, ko‘pkari (uloq) kabi milliy etnografik sport turlarimiz ham u yoki bu qardosh xalqlarda, qo‘shni davlatlarda turlicha ko‘rinishda bo‘lsa-da, ularning ham etnografik mulki sanaladi. Bunday etnomadaniy munosabatlarning yaqinligi ma’lum bir xalqlarning mushtarak ildizga egaligi yoki bir etnografik madaniyatning boshqa bir hududga ko‘chib o‘tishi bilan bog‘liq.

²¹ Karstedt (von) Lars. Sprache und Kultur. Eine Geschichte der deutschsprachigen Ethnolinguistik: Dissertation zur Erlangung der Doktorwürde des Doktors der Philosophie. Hamburg, 2004. – 294 S.

XX asrning 90-yillarida V.A.Maslova, V.I.Karasik, S.G.Vorkachyev, V.V.Kolesov, V.N.Teliya, V.V.Vorobyov kabi o'nlab rus olimlarining etnografizmlarni turli sathlarda o'rganishi natijasida lingvokulturologiya alohida mustaqil fan sifatida shakllandi va rivojlandi. Shu bilan birga, til va madaniyat muammolarini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi.

Keyinchalik turkiy xalqlar tilshunoslari tomonidan ham etnolingvistikaga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Xususan, S.M.Abramzon, A.Jikiyev, E.Janpeysov, M.S.Atabayeva kabi olimlarning etnografizmlarga doir ilmiy izlanishlari ancha e'tiborga molik ishlar sanaladi.

O'zbek tilshunosligida sof etnografizmlarga doir ilk tadqiqotlar XX asrning 80-90-yillarida olib borilgan bo'lsa-da, milliy urf-odat, an'ana va marosimlar bilan bog'liq leksika ancha oldingi yillarda tadqiqot olib borgan turkolog va dialektolog olimlar asarlarida uchraydi. Faqat ushbu yig'ib olingan va tadqiq qilingan etnografik leksika tarixiy yoki dialektologik aspektda o'rganilgan, uning etnolingvistik va lingvomadaniy imkoniyatlari ochilmagan. Bu boradagi dastlabki ishlar Y.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, G'ozi Olim Yunusov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Ishayev, E.Urazov, S.Ibrohimov, F.Abdullayev, T.Qudratov, B.Jo'rayev, S.Rahimov va boshqa bir qator olimlarning tadqiqotlarida ko'zga tashlanadi²².

Etnografizmlarni tilshunoslikning yangi talablari asosida tadqiq etish va o'rganish borasida oxirgi o'n yillikda qator ilmiy ishlar yaratildi va bu yo'nalishdagi izlanishlar davom ettirilmoqda. N. Mirzayev, Y. Bobojonov va A. Jo'raboyev kabi olimlarning etnografizmlarni o'rganish bilan bog'liq ishlarida dialektologik va etnolingvistik tamoyillar ustuvor hamda tavsifiy xarakterga ega bo'lsa, oxirgi yillarda sistem²³, leksikografik²⁴, antropotsentrik²⁵, semantik va lingvomadaniy²⁶ sathdagi bir qator ilmiy tadqiqotlar yakunlandi. Shuningdek, dialektal maqol va matallar bilan bog'liq etnografizmlarni o'rganishga doir²⁷, hamda Shimoliy Afg'onistonda yashovchi o'zbeklar to'y marosimlariga oid²⁸ ilmiy tadqiqotlar yaratildi.

²² Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык // К современной стадии узбекского литературного строительства. – Ташкент, 1933; Боровков А.К. Ўзбек шева-лаҳжаларини текширишга доир савол-жавоблар. – Тошкент, 1944; Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая и морфологическая система). Автореф. дисс. докт. фил. наук. – Ташкент, 1951; Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1975; Ўрозов Е. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978; Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961; Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, ЎзФА, 1962; Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. – Б. 80-81. Рахимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. – Термиз, 1995.

²³ Кахарова М. Ўзбек этнографизмларининг системавий тадқиқи. фил.фан.номзод.дисс. – Т., 2009.

²⁴ Амантурдиев Н.Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Гулистон, 2021.

²⁵ Нуржонов О.Е. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари этнографизмларининг антропоцентриқ тавсифи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Нукус, 2021.

²⁶ Курбоназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантиқ табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Термиз, 2021.

²⁷ Омонтурдиев А. Раҳмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2019.

²⁸ Muhammad Humoyun Nadim. Shimoliy Afg'oniston o'zbeklari to'y marosimi etnografizmlarining tizimiy va leksikografik xususiyatlari. Fil.fan.bo'yicha fals.dok. (PhD) diss. – Termiz, 2022.

Mohiyatan *etnografizm* tushunchasi jahon, qardosh va o‘zbek tilshunosligida bir ma’noni ifodalasa-da, nomlanishi va uslubiy qo‘llanishi jihatdan farqlar mavjudligini ko‘ramiz. Etnografizmlarga ta’rif-tavsif berishda ham o‘xshash yondashuvlar bilan birga turlicha qarashlarni kuzatish mumkin. Filologik tadqiqotlarda *etnografizm*, *etnografik leksika*, *etnik-madaniy leksika*, *etnografik dialektizm*, *etnografik terminlar*, *etnografik leksika*, *etnografik maydon*, *etnografik birlik*, *adabiy etnografizm*, *folklor etnografizmi*, *leksik etnografizm*, *dialektal etnografizm* kabi terminlarni uchratamiz. Uning qamrovi, tarifida ham tafovvutlarni uchratish mumkin.

Etnografik tadqiqotlarning yo‘nalishi, maqsadi va mohiyati turlicha bo‘lsa-da, ularni umummilliy hamda mahalliy-hududiy etnografik makon birlashtirib turadi. Demak, biz etnografizmlar tadqiqi borasida umumadabiy etnografizmlar va dialektal etnografizmlarni farqlash maqsadga muvofiq deb bilamiz. Ayni paytda, dialekt va etnografizmlar munosabati ham anchayin bahsli.

Etnografizmlarni keng tadqiq etgan boshqird olimasi M. Bagautdinova etnografiyani “etnik xususiyat, tavsif, kitobdagi tafsilot, spektakl va boshqalarning mavjudligidir”²⁹ deyaqayd etadi.

D.V. Kasyanova etnografizmlarni mahalliy hayotni aks ettiradigan birliklar deb hisoblaydi hamda bu toifadagi birliklar asosan, kiyim-kechak buyumlari, kundalik hayot, oziq-ovqat, hayvon yoki o‘simliklar, xususiyatlar, iqlim sharoitini nomlashga xoslanishini ta’kidlaydi³⁰.

E.M. Vereshchagin va V.G. Kostomarov ham faqat A madaniyati uchun xos bo‘lgan va B madaniyatida bo‘lmagan so‘zlarni etnografizmlar deb hisoblaydi³¹. Chunki etnografizm, yuqorida qayd etganimizdek, ma’lum bir xalqning yoki kichik bir aholi vakillarining faqatgina o‘ziga xos bo‘lgan turmush tarzi, unga aloqador tushunchalar bilan bog‘liq.

R. Qasimova fikricha, etnografik dialektizm – ma’lum bir hududda yashovchi kishilargagina tushunarli bo‘lgan shevadagi etnografik lug‘aviy birlik. Bunday lug‘aviy birliklarni dialektizmlar bilan aralashtirib yubormaslik zarur. Har qanday dialektizm etnografizm bo‘lavermaydi. Etnografizmlar dialektizmlar tarkibida o‘rganiladi, biroq etnografizm tarkibiga barcha dialektizmlarni ham kiritib bo‘lmaydi³².

Olimaning fikriga qo‘shimcha sifatida aytamizki, etnografik dialektizm va dialektal etnografizm terminlari manbalarda ayni bir ma’noda qo‘llangan. Shu bilan birga, etnografizm deganda aynan, dialektal etnografizm tushunilmaydi. Balki umumadabiy etnografizm ham nazarda tutiladi. Masalan, *ko‘pkari – uloq*, *o‘tov*, *chimildiq*, *nikoh to‘yi* leksemalari hamma uchun tushunarli va u umumadabiy etnografizm. *Qoraui* (o‘tov), *baharjurt* (Bahorda cho‘ponlar ko‘chib

²⁹ Багаутдинова.М.И. Этнографическая лексика Башкирского языка. –Уфа., 2002. – С. 16-17.

³⁰ Касянова Д.В. Этнографическая лексика в областных словарях русского языка. [http:// sites. znu. edu. ua/ confslovyanska-filologia-2015/apssm/kas--yanova.pdf](http://sites.znu.edu.ua/conf/slovyanska-filologia-2015/apssm/kas--yanova.pdf).

³¹ Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980. – С. 320.

³² Касимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: фил. фан. бўйича фал. док. дисс. – Т., 2018. – Б. 20.

boradigan chorva uchun qulay hudud) *darveshona* (bahorgi ekinlar oldidan o'tkaziladigan diniy marosim), *dikdika* (ot anjomi), *qo'noq* (mehmon), *tuvcha* (ikki yoshli urg'ochi echki) kabi etnografizmlar (Surxondaryo) dialektal etnografizmlar sanaladi. Ayrim dialektal etnografizmlar faollashishi va keng qo'llanishi natijasida umumadabiy etnografizmlardan joy olishi mumkin.

Surxondaryo etnografizmalarining bir qismi umumadabiy til bilan hamohanglik kasb etsa, bir qismi faqat mahalliy xususiyatga ega. Faqat voha hayot tarziga xos va ushbu hudud etnomadaniy muhitini aks ettiruvchi ayrim etnografizmlar adabiy tilda lakuna holatida qolmoqda. Etnografizm va dialektizmlar boshqa tillarda lakuna hisoblangani uchun, ular boshqa tilga o'tganda ekzotik so'zlar deb ham yuritiladi. Ekzotizm – bu tildagi boshqa bir xalq turmush tarzi va hayotiy voqea hodisalarini ifodalaydigan, nafaol leksika.

Etnografizmlar bilan o'zaro yaqinlikka ega hamda yondosh hodisa sifatida talqin qilish mumkin bo'lgan birliklardan yana biri evfemizmlar. Evfemizm va etnografizmlar o'rtasidagi bog'liqlik ayniqsa, dialektal muhitda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu o'rganilayotgan hududga ham aloqador. Mahalliy aholining o'ziga xos mentaliteti va nutq uslubi aksariyat etnografizmlarning evfemik xarakterda ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu holat etnografik iboralarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, *Itlar qora ko'rganday* (suruvga bo'ri oralamoq), *To'lasi bo'shab qolgan* (qo'y-qo'ziga qiron kelgan), *Og'ziga tuz solmoq* (so'yiladigan molga ishora) kabi iboralar etnografizm bo'lsada, evfemik usulda ifodalangan. Umuman olganda voha etnografizmlarining barcha turlarida evfemik jarayonlar faol kuzatiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Surxon vohasi etnomadaniy muhiti va etnografik leksikasi” deb nomlanadi. Ushbu bobda, Surxon vohasi etnomadaniy muhiti va etnografizmlarning shakllanish asoslari, Surxon vohasi etnografizmlarining umummilliy va etnik o'ziga xosliklari hamda etnografik lakunalar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, voha hududlaridan yig'ilgan etnodialektal materiallar asosida etnografizmlar turlarga ajratildi va tashif qilindi.

Urug'-qabilalarning o'zaro birikishi va ajralishi, boshqa mahalliy millat vakillari bilan o'zaro qorishiq yashash, turli bosqinlar natijasida urf-odat va terminlarning saqlanib qolishi xalqlarning etnomadaniy va boshqa sohalarida o'z aksini qoldiradi. Bu narsa Surxon vohasida yashab kelayotgan xalqlar hayotida ham o'z aksini topgan. Masalan, vohaning etnomadaniy sathiga oid leksema (etnografizm)larga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *qirqchiraq*, *tangri*, *xomtalash*, *bobochoqirish*, *to'qqiztobaq*, *jovchi*, *yelqada*, *jarchi*, *qo'naq*, kabi turkiycha so'zlar bilan birga; *hayrot*, *xatim*, *patiya* kabi arabcha; *gashtak*, *xolvaytar*, *piyoba*, *poyandoz*, *so'zana*, *ijap*, *dastro'mol* kabi fors-tojikcha etnografizmlarni uchratish mumkin.

Surxondaryoda urug'-qabila, elat nomlari, ularning o'ziga xos fe'l-atvori, yashash tarzi, shug'ullanadigan sohasi bilan bog'liq etnografizmlar alohida ahamiyat kasb etadi. Vohada o'tadigan turli xalq o'yinlarida qaysi urug'dan va ovuldan ekanligi surishtiriladi. Bu urug' va ovul vakillari bir-birining ori uchun kurash tushadi hamda ot chopadi.

- *Qishloq odamlari olchin, tog'chi, parito'p, qovchin, go'rkov, yuz... deya atalmish urug'-aymoqlarga bo'linib olishadi. T.M. Yulduzlar mangu yonadi», 12-b.*

Bundan tashqari, Surxon vohasi etnomadaniy hayotining shakllanishi va rivojida qurilish, hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik, bog'dorchilik va boshqa bir qator yashash manbai hisoblangan mashg'ulot turlari katta o'rin egallaydi. Bu kasb va mashg'ulotlarning aksariyat turlariga bugungi kunda hayot kechirish manbai emas, qadriyat sifatida qaraladi. Misol uchun o'tovlardan (qora uy) o'tgan asrning 70-80-yillarigacha voha chorvadorlari faol foydalanishgan hamda o'tovsozlik yaxshi rivojlangan. Uning qismlariga oid nomlar o'sha davrda dialekt sifatida qo'llanilgan bo'lsa, hozirda etnografizm hisoblanadi.

Hududda chorvadorlar va ularning faoliyati bilan bog'liq juda ko'p termin, ibora, matal va maqol, aytilmalar, shuningdek, irim-sirim bilan bog'liq etnografizmlarni uchratamiz (*Hut keldi kadi-kadi sut keldi. Qutli qo'noq kesa, qo'y yegiz tuvar, qutsiz qo'noq kesa, qo'yga qashg'ir tegar, Shishak (uch yoshli qo'chqor) so'yding, pishak so'yding. Qo'y so'yib mardlik qilding, ko'tan qo'yib nomardlik...*). Albatta, bu qadimdan vohada ko'chmanchi chorvadorlarning yashab kelishi va hududning chorvaga qulayligi bilan bog'liq. Takidlash zarurki, chorvachilik bilan bog'liq dialekt va etnografizmlar hali yetarlicha o'rganilmagan va lug'atlarda to'la qayd etilmagan. Izohli lug'atda ham ko'plab chorva terminlari umumiy nom ostida berilgan. Ularning shevalarda esa aniq nomi bor. Bu esa milliy lug'atimizga yana minglab so'zlarni kiritish mumkin degani. *Tuvcha, to'la, shirboz, axta, tusoq, ko'rg'o'za, quvushquloq, oqshoq, gadiqo'y, kuyunki, katmanko't, gambik, digdika, to'qli, digil, sangach, chibich, kusam, shovuloq, jolpin, moltoyaq, dagar, to'balqo'y, to'shayil, qo'm, jabuv.....* kabi dialektizm va etnografizmlarning ko'pchiligi adabiy tilda muqobili yo'q (lakuna holatida) va bu so'zlarni izohli lug'atlarga, keng muomalaga olib kirish zarur deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, voha etnomadaniy taraqqiyotida shu hududga xos chorvadorlar tomonidan tayyorlangan ko'plab taom va oziq-ovqat turlari ham mavjud. Bu taom nomlarining aksariyati yo'qolib ketish arafasida. Ishda *qovurdoq, ko'mmanon, tobanon, jernon, lochiri, bulamiq, qurtoba, jashmich, g'ilmindi, qog'anoq....* kabi o'nlab etnografik taom nomlari qayd etildi va tahlilga tortildi.

Surxon vohasi aholisining etnomadaniy hayot tarzida qarindosh urug'chilik va piri-mur(sh)idlik munosabatlari ham alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, o'rganilayotgan hududda qarindosh urug'lar o'rtasidagi quda-andachilik yaxshi rivojlangan. Ular yoshligidan farzandlarni bir-biriga "ataldi", "quloqtishlata", "belgi qilib qo'ymoq", "beshikkerti", "ro'mol baylamoq", "lali bermoq", "qoyillashmoq" kabi odatlar orqali unashtirib qo'yishgan. Katta bo'lgach yoshlar ham shu qadriyat asosida turmush qurishgan.

O'rganishlar natijasida Surxondaryo etnografizmlariga xos ba'zi so'zlar va birikmalar qarindosh xalqlar tillarida ham aynan shu shaklda va ma'noda qo'llanishiga guvoh bo'ldik. Quyidagi jadvalda shu haqida ma'lumot berilgan.

1-jadval

Surxondaryo hududida uchraydigan ba'zi etnografizmlarning o'zbek adabiy tilida va qardosh tillar nutqida qo'llanilishi holati

Surxondaryo etnografizmlarida	Umum-adabiy tilda	Qozoq tilida	Qirg'iz tilida	Qora-qalpoq tilida	Tatar tilida	Izoh
<i>qo'noq</i>	<i>mehmon</i>	<i>qonaq</i>	<i>konok</i>	<i>qonaq</i>	<i>kunak</i>	
<i>kiyit</i>	<i>sarpo</i>	<i>kiyit</i>	<i>kutuu</i>	<i>kiyt</i>	<i>kiit</i>	<i>Quda tarafga beriladigan sovg'a-salom</i>
<i>pishkak</i>	<i>pishkak</i>	<i>pishkak</i>	<i>pishkak</i> (<i>Bishkek shu so'zdan olingan</i>)	<i>pishkak</i>	<i>Yazu</i>	<i>Suzmadan yog' ajratib oluvchi asbob (kubi)ning tayoq qismi</i>
<i>yelqada</i>		<i>yelkada</i>	<i>yelkada</i>	<i>yelqade</i>	<i>yelkada</i>	<i>To'y udumi (me'yor)</i>
<i>qurut</i>	<i>qurut</i>	<i>kurut</i>	<i>kurut</i>	<i>qurut</i>	<i>kurut</i>	
<i>tolqan</i>	<i>tolqon</i>	<i>talqan</i>	<i>talkan</i>	<i>talqan</i>	<i>talkan</i>	
<i>bovыр</i>	<i>jigar</i>	<i>bavir</i>	<i>kattalu</i>	<i>bavir</i>	<i>bovir</i>	
<i>joychi</i>	<i>sovchi</i>	<i>joychi</i>	<i>Birgeleship, javchi</i>	<i>joychi</i>	<i>souchchi</i>	

Surxondaryo etnografizmlari haqida gap ketganda ularning aksariyati hozirgi o'zbek adabiy tilda mavjud bo'lmagan holda, qadim turkiy tilga borib taqalishini qayd etish zarur. Bu esa jonli so'zlashuv tilining qadim so'zlarni tashuvchi vosita ekanligiga yana bir bor isbot.

O'rganishlar va kuzatishlar natijasida Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asaridagi yuzlab so'zlar deyarli o'sha ma'nosida voha etnografik leksikasida qo'llanib kelinayotganligiga guvoh bo'ldik. Quyidagi jadvalda shu haqida ma'lumot mavjud.

**“Devoni lug‘otit-turk” asaridagi ba’zi so‘zlarning Surxondaryo
etnografizmlari bilan taqqoslanishi**

Surxondaryo etnografizmlarida	izohi	“Devoni lug‘otit-turk” asarida berilishi	izohi
<i>Esh (yesh)</i>	Hamroh, yo‘ldosh,	ایش <i>Esh</i> (81-b.)	Hamroh, o‘rtoq
<i>Jır</i>	Dumba, quyruq, yog‘	جیر <i>Jir</i> (313-b.)	Yog‘, yog‘ qobig‘i, hayvon yog‘i
<i>Jovg‘an</i>	Go‘shtsiz, yog‘i kam ovqat	جوغن <i>Javg‘an</i> (yovg‘on, 44-b.)	Taom turi
<i>Ko‘moch (ko‘mma)</i>	Cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non	کوماچ <i>Ko‘mach</i> (341-b.)	O‘choqda cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non
<i>Keraga</i>	Cho‘ponlarning qishki uyi, o‘tovi. <i>Yoxshi kesa hut-kadi-kadi sut, Joman kesa hut- keraga to‘la put (tuyoq)</i>	کیره گو <i>Kerago‘</i> (418-b.)	Chodir, o‘tov. Ko‘chmanchilarning qishki uyi
<i>Qoshanmoq (qoshanib kelmoq)</i>	Hojatga bormoq	قشاندى <i>Qashandi</i> (2-jild, 182-b.)	Siydi, hojatlandi
<i>Qovurmach</i>	Qovurilgan bug‘doy taomi	قوغورماچ <i>Qog‘urmach</i> (454-b.)	Qovurilgan bug‘doy
<i>Qo‘naq</i>	Mehmon, to‘yga kelgan chavandozlar. <i>Qutli qo‘naq ke(l)sa, qo‘y yegiz tuvar.....</i>	قاموق <i>Qonuq</i> (458-b.)	Mehmon
<i>Qo‘(o)r</i>	Tomizg‘i, oxliq, uyitqi	قار <i>Qor</i> (133-b.)	Qatig tomizg‘isi
<i>Qur</i>	To‘y davrasi, o‘tov belbog‘i	قور <i>Qur</i> (314-b.)	Davra, kamar
<i>Tolqan</i>	Bug‘doy qovurmasidan tayyorlangan taom (qovurmochning uni)	تل فان <i>Talqan</i> (412-b.)	Biror donli ekinning maydalangan shakli
<i>Toxly</i>	Bir yoshdan oshgan erkak qo‘y	توقلى <i>Toqli</i> (405-b.)	Olti oylik qo‘chqor
<i>Ushak(chi)</i>	Yolg‘onchi, chaqimchi, tuhmatchi	اوشق <i>Ushaq</i> (144-b.)	Mayda va tuhmatli so‘z
<i>Ushuk (urmoq)</i>	Yer qattiq muzlashi natijasida biror narsani sovuq urushi	اوشوک <i>O‘shik</i> (102-b.)	Mevalarni sovuq urmoq
<i>O‘trikchi</i>	Yolg‘onchi	اوتروک <i>O‘tro‘k</i> (127-b.)	Hiylagar, yolg‘onchi
<i>O‘mgan</i>	Ko‘krak qismi, gavnani tik tutish (O‘mganingdi ko‘tar: ko‘chimi, o‘zinga kel, tiklan)	اومگن <i>O‘mgan</i> (142-b.)	Gardan tomiri
<i>Shıshak</i>	Ikki yoshli erkak qo‘y	تیبیش <i>Tishak</i> (368-b.)	Ikki yoshli erkak qo‘y
<i>Chibich</i>	Olti oylik echki	چیبیش <i>Chebish</i> (349-b.)	Olti oylik echki


Surxon vohasi etnografizmlarida ham boshqa lingvomadaniy birliklar qatorida **lakunalar** (*qo'm, jugan, shirtova, shaqaqisho'rva, quymich, chavki, bo'bak, chochmaloq, kulchajumalatar, chanoch, o'xlovminar*) ham faol uchraydi. Voha *etnografik lakunalar* haqida gap ketganda, avvalo, shuni aytish kerakki, ba'zi etnografizmlarni hududiy taqqoslashda hudud emas balki, etnik omillar birlamchi ekanligiga guvoh bo'ldik.

Voha etnografik lakunalarini tarixiy-leksik jihatdan arabcha (10%), forscha (30%) va turkiycha (o'zbekcha) (60%) leksik birliklar tashkil qiladi:

1. Arabcha: *mirasi* ميراثى (folga chiqqan biror jonliq), *xatim* ختم, *arbayin* اربعين, *hayro* خيرات, *xayrot*, *isqot* اسقات (marhumlar haqiga o'tkaziladigan marosim).

2. Fors-tojikcha: *holvaytar* حلوى تر, *piyoba* پياوه, *shirkadi* شير كدو, *qurtoba* قورت, *ko'labito'ppa* كولاىى توپپه (taom nomlari), *kalapo'sh* كالله پوش (bosh kiyim), *darveshona* درويشانه, *oshxudoyi* اش خداىى (diniy marosim).

3. Turkiycha (o'zbekcha): *gungtomir* (kasallik turi), *xoltaqoxiti*, *supraqoxiti* (kenja farzandga nisbatan), *xomtalash* (tangriga aytilgan molni so'yib tarqatish), *aytilgan mol* (biror diniy marosim sabab so'yilish uchun sotib olingan yoki boqilgan jonliq), *orqov* (o'rmak anjomi), *jukjiyish*, *bo'g'chataxlash*, *shovuloq*, *yelqada* (nikoh to'yi bilan bog'liq etnografizmlar), *unurma*, *jalama*, *qollama*, *g'ilmindi*, *qog'anoq*, *jashmich*, *nonto'shama* (taom turlari).



1-rasm. Surxondaryo etnografik lakunalarining (*o'z va o'zlashgan*) leksik tarkibi bo'yicha foiz ko'rsatkichlari

Surxondaryo dialektal-etnografizmlarini ma'lum bir hududga xos yoki boshqa hududlarda ham qo'llanilishiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Faqat Surxondaryo etnomaydoniga xos: *janda*, *hayrot*, *so'yish*, *qoqash*, *jashmich*....

2. Surxondaryo bilan bir qatorda ba'zi viloyatlar aholisi hamda qardosh xalqlar nutqida uchraydigan etnografizmlar: *yel qada*, *qo'noq*, *kiyit*....

Surxondaryo etnografizmlarining mavzuiy tasnifi:

1. Irim-sirimlar, diniy marosim va motivlar bilan bog'liq etnografizmlar:

a) Folbinlik va qushnochchilikka oid etnografizmlar; (otashparastlik, tangrichilik, shamanlik, zardo'shtiylik va islom dini elementlari asosida) *chirax joxmaq, mirasi, paxta silamoq, xolaslamoq.....*;

b) marhumlar va dafn marosimlari bilan bog'liq etnografizmlar; *qirqini bermoq, jilini bermoq, shomoshi, arbayin qilmoq, oq o'ramoq, hayrot bermoq, isqot bermoq, yirtish bermoq, sarqoq bermoq.....*;

c) diniy tadbir va marosimlar bilan bog'liq etnografizmlar; *Jilboshi (vohaning ayrim joylarida Navro'zni shunday nomlashadi) oshxudayi, darveshona, xatim, bobochaqirish, is chiqarmoq, is qilmoq, aqiqa, muchalto'y.....*;

2. Turli kasallik nomlari va ularning davosi bilan bog'liq etnografizmlar: *chanchuv (sanchiq), tomir kasal, gungtomir qichima kasal, tepki, tirishma kasal (ko'richak)....*

3. Chorva bilan bog'liq etnografizmlar: *o'tov, qorauiy, to'l, choroyna, uvuz (og'uz), bo'chalamoq, palla, suzgi, iydirima, yenchil, chagana, og'aliq, qo'shoq, ko'kan....*

4. Dehqonchilik bilan bog'liq etnografizmlar: *paykal (hosili tayyor bo'lgan dala), tirkish (qovun navi), xayot, kurak, omoch, tirgak, do'l, keli, bo'yinturug'....*

5. Zardo'zlik, tikuvchilik, kashtachilik va boshqa qo'l mehnati bilan bog'liq etnografizmlar: *avdarma (etik turi), alacha, zardevol, so'zana, chiroz, kashta, chapo'sh.....*

6. Turli cholg'u asboblari, xalq o'yinlari va og'zaki ijod namunalari bilan bog'liq etnografizmlar: *sibizg'a, changqovuz, sur, qo'biz, alacha, quralay, eshakmindi, zuvillatar, dashinbova, galagov, yopiray, maydayo-mayda....*

7. Qarindoshchilik, urug'-qabila va mahalliychilik munosabatlari bilan bog'liq etnografizmlar: *otadosh, yenadosh, yemchakdosh, kindikdosh, tuvushqan, egiztira, yegachi, qaynegachi, mo'nkato'da, ko'sato'da, Shoxo'jato'da, Xo'jabulg'onchi....*

8. Xalq bayramlari, sayllar va to'y bilan bog'liq etnografizmlar: *ko'klamboshi, payg'ambarto'y, bahorjurtga chiqish, axsuyak, alabahor (erta bahor o'tkaziladigan sayl) atashtirmoq (unashtirimoq), chachsiypatar, oyaqbosar, urchiqiyiruv....*

9. Oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq etnografizmlar: *jalama, bylatmyq, to'ntarma, ko'lobito'ppa, qog'anaq, qovurdaq, shirkadi, qovurmach, jashmich....*

